



**SUPPORT
SCIENCE**

BUILDERS OF THE FUTURE

journal homepage:
<https://kelajakbunyodkori.uz/>



ANALYSIS OF LINGUISTIC TERMS IN MUHAMMADULLO LOTF'S GRAMMAR 'نحو. دری زبان دستور'

Robiyakhon Sirojiddinova

1st-year Master's Student

Tashkent State University of Oriental Studies

School of Iranian and Afghan Studies

E-mail: robiyasirojiddinova22@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

Kh. Alimova

Doctor of Philological Sciences

Tashkent State University of Oriental Studies

Professor at the School of Iranian and Afghan Studies

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: term, syntax, morphology, root terms, artistic terms, similar terms, Arabism, doublet.

Received: 28.04.25

Accepted: 10.05.25

Published: 14.05.25

Abstract: After the Dari language (along with Pashto) was listed as an official language in the Constitution of Afghanistan adopted during the reign of Muhammad Zahir Shah in 1964, work began to be carried out to develop the language. A number of scholars began to write works on the grammar of the Dari language. In 1982, Muhammadullah Lotf's book "Grammar of Dari language. Syntax" was published, intended for independent study by Dari language teachers. The article studies the syntactic terms and their use in this work.

MUHAMMADULLO LO'TFNING "نحو. دری زبان دستور" GRAMMATIKASIDAGI LINGVISTIK TERMINLAR TAHLILI

Sirojiddinova Robiyaxon

1-kurs magistratura bosqichi talabasi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

"Eronshunoslik va afg'onshunoslik" oliy maktabi

E-mail: robiyasirojiddinova22@gmail.com

X. Alimova*Filologiya fanlari doktori**TDSHU**“Eronshunoslik va afgʻonshunoslik” oliy maktabi professori**Toshkent, Oʻzbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: termin, sintaksis, morfologiya, tub terminlar, yasama terminlar, birikma terminlar, arabizmlar, dubletlik.

Annotatsiya: 1964-yil Muhammad Zohirshoh davrida qabul qilingan Afgʻoniston Konstitutsiyasida dariy tili (pashtu bilan bir qatorda) rasmiy til sifatida qayd etilgandan soʻng, tilni rivojlantirishga qaratilgan ishlar amalga oshirila boshlandi. Qator olimlar dariy tili grammatikasiga oid asarlar yozishga kirishishdi. 1982-yil Muhammadullo Loʻtfning dariy tili oʻqituvchilariga mustaqil oʻrganishlari uchun moʻljallangan “Dariy tili grammatikasi. Sintaksis” kitobi nashr qilindi. Maqolada mazkur asardagi sintaktik terminlar va ularning qoʻllanilishi oʻrganilgan.

АНАЛИЗ ЛИНГВИСТИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ В ГРАММАТИКЕ МУХАММАДУЛЛО**دستور زبان دری. نحو لوتفا****Робияхон Сирожиддинова***Магистрант 1-го курса**Ташкентский государственный университет востоковедения**Высшая школа иранистики и афганистики**E-mail: robiasirojiddinova22@gmail.com***X. Алимова***Доктор филологических наук**Ташкентский государственный университет востоковедения**Профессор высшей школы иранистики и афганистики**Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: термин, синтаксис, морфология, корневые термины, искусственные термины, сложные термины, арабизмы, дублет.

Аннотация: После того, как язык дари (наряду с пушту) был указан в качестве официального языка в Конституции Афганистана, принятой в 1964 году при Мухаммаде Захир-Шахе, начались усилия по развитию этого языка. Ряд учёных начали писать труды по грамматике дари. В 1982 году вышла книга Мухаммадулло Лотфа «Грамматика дарийского языка. Синтаксис», предназначенная для самостоятельного изучения преподавателями языка дари. В статье рассматриваются синтаксические термины и их использование в данной работе.

Muammoning qo'yilishi. Hozirgi kunga qadar dariy tili lingvistik terminologiyasi to'liq va barqaror tizimda shakllanmagan. Ammo dariy tili grammatikasiga oid nodir grammatik asarlar mavjud. M.N.Neghat Saidiyning “دستور معاصر زبان دری”, M.R.Ilhomning “دستور زبان دری” (grammatikalari)1970), R.Farhodiyning «Разговорный фарси в Афганистане» (M., 1974), L.N.Kiseleva (Dorofeeva)ning «Язык фарси-кабули» (M., 1960), «Очерки по лексикологии языка дари» (M., 1973), «Язык дари Афганистана» (M, 1985) monografiyalari dariy tili tadqiqiga bag'ishlangan muhim nazariy adabiyot hisoblanadi.

Mavzuning dolzarbligi. Dariy tili lingvistik terminlari va ularning tadqiqiga doir shu kunga qadar nafaqat Afg'oniston, balki xorijda ham biron bir ilmiy ish qayd qilinmagan. Shu o'rinda dariy tili grammatikasining Eron fors tili grammatikalari asosida shakllanganligini e'tirof etish o'rinli. Dariy tili Afg'onistonning mustaqil davlat tili va unga xos fors tilidan farqli xususiyatlar filologik tadqiqotlarda o'z aksini topgan.

Maqolada dariy tili sintaksisiga oid terminlarning qo'llanilishi Muhammadullo Lo'tfning “دستور زبان دری نحو” grammatikasi asosida o'rganildi. Grammatik mavzulardagi sintaktik terminlar to'liq qamrab olindi (jami 99 ta). To'plangan terminlarning o'ziga xos struktur-semantik xususiyatlarini ochiqdashda M.N.Neghat Saidiyning “دستور معاصر زبان دری” monografiyasidagi sintaktik terminlar qiyoslash uchun tanlab olindi.

Muhammadullo Lo'tfning “دستور زبان دری نحو” grammatikasi 1982-yil Kobulda nashr qilingan. Asar dariy tili sintaksisiga bag'ishlangan bo'lib, so'zboshida mavjud dariy tili grammatikalarida sintaksisga oid terminlarning qo'llanilishida muayyan kamchiliklar mavjudligi, mazkur risola bularni bartaraf etish maqsadida tuzilgani ta'kidlanadi. Muallif bu kamchiliklarni xususiy va umumiy xatolar ajratadi. Uning yozishicha, ba'zi mualliflar tomonidan yo'l qo'yilgan xususiy xatolar juda muhim emas va to'g'rilashga ehtiyoj yo'q. Ammo umumiy xatolar hozirgi kunga qadar tilshunoslar tomonidan takrorlanib kelmoqda. Bular quyidagilar:

- birikma ta'rifining juda cheklangan va to'liq emasligi;
- gap turlarini (sodda gap, qo'shma gap, aralash gap) to'g'ri guruhlanmagani;
- sodda gap qoidasi ta'rifining noto'g'ri talqini;
- qo'shma gap va uning turlariga yuzaki sharh berilishi;
- ergashgan qo'shma gaplarda bosh va ergash gapning o'rni;
- keltirilgan misollarni qoidalarga mos kelmasligi;
- morfologiya va sintaksis mavzularining qorishtirilishi.

Muhammadullo Lo'tf o'z risolasini yozish davomida bir qancha qiyinchiliklarga duch kelgani, xususan, ayrim dariy tili grammatik terminlarining shu kungacha aniq va bir xil nomlanmagani, turli manbalarda turlicha nomlar bilan qo'llanilishini aytadi. Masalan, مبتدا [môbtadâ] “ega” termini uchun

نهاد [nehâd] va مسند اليه [môsnad aleyh] shakllarining mavjudligi, قيد [qayd] terminining morfologiyada “ravish” soʻz turkumi uchun, sintaksis boʻlimida “hol” ikkinchi darajali boʻlak uchun oʻzgarasdan birday qoʻllanilishi dariy tili oʻrganuvchilari uchun chalkashlik tugʻdirishini qayd qiladi.

Termin (lotincha “terminus” – chek, chegara, chegara belgisi). Fan-texnika va boshqa sohaga oid narsa haqidagi tushunchani aniq ifodalaydigan, ishlatilish doirasi shu sohalar bilan chegaralangan soʻz yoki soʻz birikmasi: atama. Terminlar bir maʼnoli boʻlishi, ekspressivlik va emotsionallikka ega boʻlmashligi kabi belgilari bilan ham umumisteʼmoldagi soʻzlardan farqlanadi. Masalan, lingvistik terminlar: gap, ega, ot, son, tovush va boshqalar .

Tahlil jarayonida Muhammadullo Loʻtfning “دستور زبان دري نحو” grammatikasida mavzu doirasida keltirilgan jami 109 ta sintaksisga oid termin toʻplandi. Quyida bu terminlarning berilishi, izohlanishi va dubletlik masalasi oʻrganildi.

Dariy (shuningdek, fors) tilshunosligi, xususan, grammatikasiga doir terminlar shakllanishida arab tilining taʼsiri katta boʻlgani maʼlum. Materiallarimiz tahlilida sintaktik terminlarning katta qismi arabizmlar ekani aniqlandi. Tub terminlar misolida koʻradigan boʻlsak, جمله [jomla] “gap”, مبتدا [mobtadâ] “ega”, خبر [xabar] “kesim”, عطف [atf] “koʻmakchi”, ربط [rabt] “bogʻlovchi”, منادا [monâdâ] “undalma” kabi sintaktik terminlar arab tilidan oʻzlashgan. Shuningdek, bular asosida yasama va birikma terminlar yasalgan.

Terminlar yasashida arabcha soʻzlardan tashqari arab elementlari ham ishtirok etadi. Masalan, غير [ḡayr-e] yaʼni, -siz qoʻshimchasini ifodalash uchun qoʻllaniladi:

معين كننده های غير اضافی [moayyan konendahâ-ye ḡayr-e ezâfi] “izofasiz aniqlovchi”,
معين كننده های غير اضافی توصيفی [moayyan konendahâ-ye ḡayr-e ezâfi tawsifi] “izofasiz tavsifiy aniqlovchi”,

معين كننده های غير اضافی عددی [moayyan konendahâ-ye ḡayr-e ezâfi adadi] “izofasiz miqdor aniqlovchisi” kabi.

Arab tilida baʼzi soʻzlarning koʻplik shakli siniq koʻplik orqali ifodalanadi. Ushbu elementlar sintaktik terminlar tarkibida ham uchradi. Masalan جزء [jozʼ] “qism”, “boʻlak” soʻzining siniq koʻplikdagi shakli اجزا [ajzâ] orqali quyidagi terminlar hosil qilingan:

اجزای اساسی جمله [ajzâ-ye asâsi-ye jomla] “gapning bosh boʻlaklari”,
اجزای پیوست جمله [ajzâ-ye paywast-e jomla] “gapning ikkinchi darajali boʻlaklari”.

Termin tushunchasi monosemiyaga ega, qatʼiy ilmiy tushunchani tavsiflaydigan mustaqil leksik birlikdir. Terminlar oʻz doirasida sinonimlik hodisasini mutlaqo rad etadi. Ammo, bir xil maʼnoni ifodalovchi terminning bir necha koʻrinishlari boʻlishi mumkin. Bu hodisa tilda dubletlik deb ataladi.

Dubletlar – (fransuzcha double < double – ikkili). Bir xil (teng) semantik tarkibga ega boʻlgan til birliklari . Terminologiyada sinonimiya, odatda, ikkilanish hodisasi sifatida tushuniladi, yaʼni mutlaq sinonimiya maʼnosiga oʻxshash terminlar yoʻq, terminologik variantdoshlik bor.

Tilshunoslikning terminologik tizimida, avvalo, ularning ta'riflarida aynan bir xil signifikativ komponentlarga ega bo'lgan terminlar o'rtasida nol oppozitsiya munosabatlarini o'rnatish mumkin. Bunday terminlar, odatda, ilmiy matnda deyarli to'liq o'zaro almashinuvchanlikni namoyon qiladi. Lingvistik terminlar terminlarga xos bo'lmagan (ularning an'anaviy talqiniga muvofiq) qisman sinonimiya va polisemiyaning namoyish etadi.

Materiallarimiz tahlilda quyidagi terminlar dubletlari bilan keltirilgan;

bosh gap – جمله عمده [jomla-ye omda], جمله هسته [jomla-ye hasta], سر جمله [sar jomla], جمله پایه [pâya-ye jomla];

ergash gap – جمله معترضه [jomla-ye motareza], جمله پیرو [jomla-ye payraw], جمله وابسته [jomla-ye wâbasta];

to'ldiruvchi – پرکننده [porkonenda], مفعول [maf'ul], متمم [motamem];

ibora, so'z birikmasi – عبارت [ebârat], واحد های فرازیولوژی [wâhed hâ-ye frâzyuluži];

teng aloqa – رابطه عطفی [râbeta-ye atfi], رابطه پیوست [râbeta-ye paywast];

sodda yig'iq gap – جمله های ساده خلص [jomlahâ-ye soda-ye xollas] – جمله های نامنکشف [jomlahâ-ye nâmonkašef];

sodda yoyiq gap – جمله های ساده تفصیلی [jomla hâ-ye soda-ye tafsili], جمله های منکشف [jomlahâ-ye monkašef] sinonimlari berilgan. Ammo qo'llash jarayonida mazkur terminlarning birinchi berilgan varianti dominantlik qiladi.

Yuqoridagi holatda terminlarning birinchi berilgan varianti dominant bo'lib, qolganlarini muallif dariy tili grammatikalarida qo'llanib kelinayotgan variantlar bo'lgani uchun keltirgan, deb baholash mumkin.

Tahlil jarayonida to'plangan jami tub terminlar 8,2%ni (jami 9 ta termin) tashkil etdi va ularning hammasi arab tilidan o'zlashgan sintaktik terminlar hisoblanadi: جمله [jomla] – gap, مبتدا [mobtadâ] – ega, خبر [xabar] – kesim, عطف [atf] – ko'makchi, ربط [rabt] – bog'lovchi, منادا [monâdâ] – undalma, مفعول [maf'ul] ~ متمم [motamem] to'ldiruvchi, حال [hâl] – hol.

Yasama terminlar 3,6%ni (jami 4 ta termin) tashkil etdi. Ular ot qismi arab tilidan o'zlashgan ism + yordamchi fe'l modelidagi qo'shma fe'llardan yasalgan hozirgi zamon sifatdoshi qolipida yasalgan: تابع کننده [tâbe konenda] – hokim bo'lak, تابع شونده [tâbe šawenda] – tobe bo'lak, کننده معین [moayyan konenda] – aniqlovchi, پرکننده [porkonenda] – to'ldiruvchi.

Materiallarimizda qo'shma terminlar kuzatilmadi. Birikma terminlar jami 40 ta bo'lib, sintaktik terminlarning 36,6% ni tashkil qildi. Bular orasida ikki, uch va qisman to'rt tarkibli terminlar mavjud. Mazkur turda ham arabizmlar yetakchilik qilgan: جمله معترضه [jomla-ye motareza] – ergash gap, مبتدای متعدد [mobtadâ-ye motaaddad] – uyushgan ega, رابطه نحوی [râbeta-ye nahwi] – sintaktik bog'lanish, عبارت های ضمیری [ebâraathâ-ye zamiri] – olmosh bilan ifodalangan so'z birikma.

Misollarimiz tahlilida ikki tarkibli 40 ta birikma termin ichida faqat 4 ta termin tarkibida forsiy-dariycha soʻz uchradi: جمله ساده [jomla-ye soda] – sodda gap, رابطه همراهی [râbeta-ye hamrâhi] – bitishuvli aloqa, رابطه وابسته گی [râbeta-ye wâbastagi] – boshqaruv aloqasi.

Uch tarkibli birikma terminlar jami 36 ta boʻlib, quyidagilarni tashkil qiladi:

جمله ساده پرسشی [jomla-ye soda-ye porseshi] – shart ravishi, قيد نحوی شرط [qeyd-e nahwi-ye šart] – shart ravishi, اجزای پیوست جمله [ajzâ-ye paywast-e jomla] – sodda soʻroq gap, جمله معترضه مقدار و درجه [jomla-ye motareza-ye meqdor wa daraja] – daraja miqdor ergash gap, جمله ساده عمومی شخص [jomla-ye soda-ye omumi-ye šaxs] – shaxsi umumlashgan gap.

Toʻrt tarkibli birikma terminlar 11,9% ni jami 13 ta (tashkil etdi: قيد نحوی سبب و مقصد [qeyd-e nahwi-ye sabab wa maqsad] – sabab va maqsad ravishi, جمله معترضه مقدار و درجه [jomla-ye motareza-ye meqdor wa daraja] – daraja miqdor ergash gap, جمله ساده عمومی شخص [jomla-ye soda-ye omumi-ye šaxs] – shaxsi umumlashgan gap.

Muhammadullo Loʻtfning “دستور زبان دری نحو” grammatikasini oʻrganish quyidagi xulosalarga olib keladi:

1. Asarda dariy tili sintaksisiga oid mavzular qoidalar tasnifi va unga mos misollar bilan ochiqqlangan. Mavzular doirasida 109 ta termin qoʻllanilgan. Muallif sintaktik terminlarning dubletlarini ham toʻliq keltirgan. Buni monografiyaning dariy tili professor-oʻqituvchilariga moʻljallangani bilan asoslash mumkin.

2. Tahlil jarayonida toʻplangan jami tub terminlar 8,2% (9 ta), yasama terminlar 3,6%ni (4 ta), ikki tarkibli birikma terminlar 36,6% (40 ta), uch tarkibli birikma terminlar 39,7% (36 ta), toʻrt tarkibli birikma terminlar 11,9% (13 ta)ni tashkil etdi.

3. Asarda mavjud dariy tili grammatikalaridagi yoʻl qoʻyilgan kamchiliklar, jumladan, gap turlari, qoʻshma gap va uning turlari, morfologiya va sintaksis mavzularining qorishtirilishi kabi holatlarni bartaraf etishga muvaffaq boʻlingan. Muallif tomonidan ravish va hol kabi morfologik va sintaktik sathdagi tushunchalar uchun alohida termin taklif qilingan.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyhati:

1. Ҳожи́ев А. Ти́лшуно́слик терми́нларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002.
2. محمدالله لطف دستور زبان دری نحو. کابل ۱۹۸۲